

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| H.B.Nuriddinova | |
| Linguistic feature of english riddles | 129 |
| S.S.Qozaqova | |
| "Boburnoma" kompozitsiyasining struktural tahlili..... | 133 |
| A.M.Abjalov | |
| Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati | 139 |
| N.B.Xudayberganova, D.M.Yuldasheva | |
| Bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlar yordamida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish | 143 |
| G.Sh.Ergasheva | |
| Do'stlik va dushmanlik konseptlarining leksik-semantik tahlili: o'zbek va ingliz tillari misolida..... | 147 |
| M.A.Abduqodirova | |
| A comparative semantic study of the mechanisms of expressing "Irony" in English and Uzbek .. | 153 |
| M.A.Sayidova | |
| Xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning ahamiyati..... | 159 |
| A.X.Шукрова | |
| Taxlipli қиёсии вожаҳои ифодагари расму оинҳои миллӣ дар гӯишҷои тоҷикони | |
| Сариосиё ва Самарқанд | 163 |
| M.N.Xamdamova | |
| Yangi O'zbekiston qonunchiligidagi til masalasi va yurislingvistika..... | 172 |
| K.T.Sindorov | |
| She'riy matnning lingvopoetik tadqiqi masalalari | 176 |
| Х.С.Шукрова | |
| Taxlipli баъзе вожаҳои лексикаи заргарӣ ва ороишӣ дар "Шоҳнома"-и Фирдавсӣ | 180 |
| Г.Р.Ташматова | |
| Стратегии интеграци обучени языку и предметному содержанию в развитии | |
| профессиональной коммуникативной компетенции | 187 |
| N.K.Abbasova, M.I.Abduvaliyeva | |
| Weather and natural phenomena in english and russian proverbs: a structural analysis | 193 |
| N.K.Abbasova, Sh.A Anastasiya | |
| Integrating AI into esp course to improve language learning through smart and effective strategies | 197 |
| I.I.Po'latova | |
| O'zbek tilidagi evfemizmlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi | 205 |
| O.Q.Xasanova | |
| So'z boyligi bilan ishslashda didaktik tamoyillarni joriy etish..... | 209 |
| K.A.Abdurashidova | |
| Образы в народных легендах: особенности, роль и поэтика в узбекской и | |
| английской традициях..... | 213 |
| N.A.Abdullayeva | |
| Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs..... | 219 |
| D.Y.Kambarova | |
| Cutting-edge approaches to effective language teaching in the digital era | 222 |
| G.T.Khaitova | |
| O'zbek va ingliz tillaridagi "yaqin-uzoq" oppozitsiya komponentli frazeologik birliklar tahlili | 229 |
| M.O.Batirkhanova | |
| Linguocultural analysis of somatic phraseologisms in proverbs..... | 233 |
| J.A.Egamnazarov | |
| "Boburnoma"ning uch xil tarjimasida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning qiyosiy tahlili..... | 238 |
| K.T.Israilova | |
| ijtimoiy tarmoqlar tilida muloqotning dinamik evolyutsiyasi | 242 |
| M.M.Botirova, Z.G.Qodirova | |
| Ta'limiyl korpus lingvistikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili..... | 246 |
| F.K.Aminov | |
| Multimodal characteristics of women's language on instagram: a discourse analysis of digital | |
| identity and engagement strategies | 250 |
| Z.M.Sobirova | |
| Nutqiy tafakkurning neyropsixolingvistik tavsifi..... | 254 |



UO'K: 80.81'33

TA'LIMIY KORPUS LINGVISTIKASI BO'YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR TAHЛИLI**АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ ОБУЧАЮЩЕЙ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКИ****ANALYSIS OF RESEARCH IN EDUCATIONAL CORPUS LINGUISTICS****Botirova Maftuna Maxammadkulqin qizi¹** ¹O'zbekiston milliy universiteti talabasi**Qodirova Zebo Gulboyevna²** ²O'zbekiston milliy universiteti o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ta'limiylor korpus lingvistikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlari keng tahlil qilingan. Bunda korpus lingvistikasi ta'rifi, uning ta'limgagi dolzarbligi va zamonaviy til o'rganishda samaradorligi yoritilib berilgan. Jahondagi va O'zbekistondagi ta'limiylor korpuslari, ularning imkoniyatlari, tarkibi va texnologik jihatlari batafsil o'rganilgan. Maqolada til o'rgatishda ta'limiylor korpuslardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, ularning lingvodidaktik va morfologik asoslar haqida ma'lumot beriladi. Tadqiqot natijalari ta'limiylor korpuslarni takomillashtirish va ularni samarali o'qitish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola o'quv materillarini yaratishda korpus lingvistikasi texnologiyalarining keng imkoniyatlarini namoyon etadi.

Аннотация

В данной статье проведён всесторонний анализ исследований в области обучающей образовательные корпусы. Представлено определение корпусной лингвистики, её актуальность в образовании и эффективность в современном изучении языков. Подробно рассмотрены образовательные корпуса в мире и в Узбекистане, их возможности, состав и технологические аспекты. В статье раскрыты преимущества и недостатки использования обучающих корпусов в преподавании языков, а также их лингводидактические и морфологические основы. Результаты исследования играют важную роль в совершенствовании образовательных корпусов и их эффективном применении в качестве инструмента обучения. Данная статья демонстрирует широкие возможности технологий корпусной лингвистики в создании учебных материалов.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of research in the field of educational corpus linguistics. It explores the definition of corpus linguistics, its relevance in education, and its effectiveness in modern language learning. The study examines educational corpora worldwide and in Uzbekistan, highlighting their potential, structure, and technological aspects. The article discusses the advantages and disadvantages of using educational corpora in language teaching, as well as their linguistic and morphological foundations. The research findings play a crucial role in improving educational corpora and utilizing them as effective teaching tools. This study demonstrates the broad potential of corpus linguistics technologies in the development of educational materials.

Kalit so'zlar: korpus, ta'limiylor korpus, rus tili milliy korpusi, elektron axborot bazasi, lug'at, matn.**Ключевые слова:** корпус, обучающий корпус, Национальный корпус русского языка, электронная информационная база, словарь, текст.**Key words:** corpus, educational corpus, Russian National Corpus, electronic information database, dictionary, text.**KIRISH**

Zamonaviy tilshunoslik sohasida korpus lingvistikasi katta ahamiyatga ega. Katta hajmdagi matnlarni tahlil qilish orqali, tilning tuzilishi va o'rganilishiga yordam beradi. Korpus texnologiyasida tabiiy til grammatikasini tahlil qilish, matnlardagi yangi so'zlar va ularning ishlatalish chastotasi aniqlash, til birliklari o'rtasidagi semantik munosabatlar, xususan, sinonimlik va antonimlik, paronimlik, omomimlik hodisalarini tadqiqini o'rganish mumkin bo'ladi. Ayniqsa, korpuslardan ta'lim sohasida foydalanish o'quv jarayonini samarali tashkil etishni ta'minlaydi. Ta'lim sohasida, xususan, chet tillarini o'qitishda korpuslardan foydalanish interaktiv va moslashtirilgan metodlarni taqdim etadi. Professor V.A.Plungyan ning fikricha... "endi odamga tilni o'zlashtirish uchun odamga

TILSHUNOSLIK

2 ta narsa emas, balki 3 ta narsa kerak: lug'at, grammatica va til korpusi" [7, 261]. Til o'rjanuvchilarga korpus nutq, grammatica, leksikada mavjud materiallarni taqdim etadi.

O'zbekistonda korpus lingvistikasi sohasida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, maqolada ta'limiylar korpus lingvistikasi bo'yicha izlanish olib borgan olimlarning tadqiqotlari tahlil qilingan, o'rganishlardan olingan natijalar va chet eldag'i ta'limiylar korpuslar tahlili haqida ayrim ma'lumotlar berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Korpus atamasiga sohada tadqiqot olib borgan olimlar tomonidan turlicha ta'riflar keltiriladi. Jumladan, professor B.Mengliyev tomonidan Korpus – ma'lum maqsadda yig'ilgan matnlar majmuuni tashkil etuvchi, til birliklari yig'indisi, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta'minot asosida joylashtirilgan onlayn yoki oflays tizimda ishlaydigan matnlar jamlanmasi deb ta'rif beriladi [4, 3].

Korpus lingvistikasiga N.Abduraxmonova quyidagi ta'rifni beradi, korpus lingvistikasi – bu nutqning barcha ifodalarini kuzatish, tahlil qilish va o'rganish imkonini beruvchi yo'naliш bo'lib, korpus esa tilning qisqartirilgan modeli sifatida nutqning turli diskurslardagi ifodasini tabiiy nutq holatida namoyon etuvchi tizimli matnlar majmuasidir[1, 16].

Korpus lingvistikasi korpus turlarini, uning tuzilishini va tabiiy tilda yuzaga keladigan o'zgarishlarni vaqt nuqtayi nazaridan kuzatish, tahlil qilib borish imkonini beradi. Korpuslar turli maqsadlarda yaratiladi va tarkibida bir qancha subkorpuslarni birlashtiradi. Korpuslar tarkibida subkorpuslar sifatida mualliflik korpusi, parallel korpus, ta'limiylar korpuslarni qayd etish mumkin. Jumladan, o'zbek tili milliy (uzbekcorpus.uz) korpusi tarkibida mavjud ta'limiylar korpus, qolaversa, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-yilda o'zbek tilida ta'limiylar yaratishga doir dastlabki amaliy ishlarni olib borish boshlandi. (uzchoolcorpara.uz)

| | | |
|---------------|-----------------------------------|---------------------------------------------------|
| Amerikada | N.F.Sidiropulos N.Hatsigeorgiu | Korpuslarning afzalligi va kamchiliklari haqida |
| | Sabine Braun | Korpus manbalari haqida |
| Rossiyada | V.V.Vinogradova | Rus tili milliy korpusning tarkibi |
| | O.G.Chernyavskaya | Dunyo korpuslari haqida |
| Turkologiyada | O'.Xoliyorov | Ta'limiylar korpusning lingvistik asoslari haqida |

Ingliz tilida ta'limiylar korpus alohida korpus bo'lib, ingliz tilini o'rganuvchilarning xalqaro korpusi sifatida, og'zaki ingliz tilini o'rganish uchun Lancaster Spoken English Corpus, Corpus of Spoken American English korpuslarini misol qilib keltirsak bo'ladi.

N.F.Sidiropulos va N.Hatsigeorgiuning tadqiqotida ta'linda korpusdan foydalanishning afzalligi va kamchiliklari haqida quyidagi fikrlarni aytadi. Korpusning afzalligi uning misollar ko'pligi, qidiruv tizimiga kirish imkoniyati hamda ko'p sonli grammatica va til xususiyatlarini batafsil o'rgata oladigan manba deb ko'satsa, kamchiligi sifatida korpusda tildan foydalanishda kontekstning yo'qligi va aniq tekshiruvi yo'qligini keltiradi, chunki ta'linda tasodifiy elementlar mavjud [10, 1-5]. Ta'limiylar korpuslarning qurilishi, uning tarkibi va ishlatilishi o'quvchilarga til o'rgatishda qo'llanishi haqida so'z yuritilgan. Ilgari o'rganilgan korpus turlarining samaradorligi va ta'lindan foydalanishning afzalligi ko'rsatilgan.

Sabine Braun ELISA – til o'rganish maqsadlari uchun pedagogik jihatdan boyitilgan korpus haqidagi tadqiqotida til o'rganish uchun mos bo'lgan kichik va aniq maqsadli korpuslarni ishlab chiqarilishi, korpusda dolzarb mavzularga oid manbalar bo'lishi kerakligini tahlil qilib beradi [11].

John Sinclair tadqiqotining tahlil natijalarini shuni ko'rsatadiki, korpusni ta'linda qo'llash uchun avval o'qituvchida ko'nikma va bilim bo'lishi kerak. Shundan keyin, o'quvchilarga til o'rgatishda korpusdan foydalanish kerakligi haqida va uni qanday ishlatish usullarini o'rgata oladi. Chunki bu maqolada hozirda ko'p talabalar, o'quvchilar, akademik litsey o'quvchilari til o'qitish korpusidan bexabar ekanligi aytilgan [8, 1-3].

Rus tili milliy korpusi tarkibida ta'limiylar korpus ichki korpus sifatida ishlab chiqarilgan va uning milliy korpusdan farqi matnlarning ta'limiylar korpusda o'quvchi yoshiga mosligi bilan ajralib turadi.

Rus tili milliy korpusi haqida V.V. Vinogradova ilmiy tadqiqotida Rus tili milliy korpusi 3 ta komponentdan iborat ekanligi haqida ma'lumot berilgan. Ularga elektron shakldagi matnlar to'plami, lingvistik annotatsiya tizimi va qidiruv so'rovlarini ta'minlovchi qidiruv tizimlari kiradi.

O.G.Chernyavskaya taqdriqotida chet tilini korpus texnologiyasi bilan o'rganishning tarixi haqida ma'lumot beradi. Dastlab V.P.Sisoev, T.A.Chernyakova, J.Aston, P.Beyker, S.Bernardini, T.Jons va boshqalar o'zlarining tadqiqotlarini chet tillarini o'qitishda korpus texnologiyasidan foydalanishdagi muammolarga bag'ishlangan edi. T.Jons birinchi bo'lib, 1991-yilda chet tilini o'qitishda korpusdan foydalanishni taklif qilgan. Ushbu yondashuv Data Driven Learning deb ataldi. Ingliz tili fanida grammatika va lug'at darslarida birinchi bo'lib korpusdan foydalanildi.

Tadqiqotda korpusdagi matnlar, manbalar va topshiriqlar o'quvchi darajasiga mos bo'lishi kerak, degan fikrlar berilgan va bir nechta ingliz tilidagi korpuslar tahlil qilingan. Misol uchun, The Oxford English Corpusda hozirgacha 2 milliarddan ortiq so'zlardan foydalanilgan. The Corpus of Contemporary American English korpusi esa 1990-yildan hozirgi kungacha bo'lgan matnlarni va 445 million so'zni o'z ichiga oladi. The Bank of English korpusi 4 yarim milliard so'zdan iborat ingliz tilidagi matnlarni o'z ichiga oladi [6, 226].

O'Xoliyorovning tadqiqotida korpusda giponomik, graduonimik va partonimik munosabatlар bildiruvchi birliklar bazasini shakllantirish yuzasidan takliflar beriladi. Til korpusi – millionlab matnlarni qamrab olgan til korpuslari so'zni izohlash, uni tildagi munosabatlari bilan birga ko'rsata olish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi [3, 30].

O'zbek tili ta'limi korpusining tuzilishining lingvistik asoslari bo'yicha O'. Xoliyorovning tadqiqotlari quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi. O'zbek tili ta'limi korpusi tuzilishini nazariy masalalarini belgilash, o'zbek tili ta'limi korpusining lingvistik asoslarini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda ta'limi korpusning ona tili ta'limi, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishdagi afzalliliklarini aniqlash, o'zbek tili ta'limi korpusiga material tanlash tamoyillarini ishlab chiqish, o'quv lug'atlarini ta'limi korpusga to'plash jarayonini aniqlash kabi ishlar amalga oshirilgan.

TAHLIL VA MUHOKAMA

"Aksariyat ilmiy manbalarda dastlabki yozma korpuslar sifatida Brown (1964), LOB (1978), FROWN (1999), FLOB (1998), Kolhapur (1978), ACE (1986) manbalar qayd etilsa, nisbatan keyin yaratilgan og'zaki korpuslar sifatida SEU, LLC, SEC (ingliz tili og'zaki matn korpusi), Map task korpus hamda HKCSE (inglizcha og'zaki matnlarning gong gonk korpusi), aralash korpus (og'zaki va yozma matnlardan tashkil topgan) sifatida ingliz tilining xalqaro ICE korpuslari e'tirof etilgan. Yuqorida nomi keltirilgan korpuslarning hajmi 1 mln. so'zni o'z ichiga oladi" [1, 12].

Brown korpusi – ingliz tilidagi ilk katta korpuslardan biri. U 1961-yilda AQSHning Braun universitetida Nelson Fransis va Genri Kuchere tomonidan tuzilgan. Bu korpusning yaratilishidan dastlabki maqsad ingliz tilining grammatik va leksik xususiyatlarini statistik jihatdan o'rganish bo'lib, ilmiy tadqiqotlar va tilni o'rganish jarayonida real hayotda qo'llaniladigan matnlar asosida tilning stukturasiini tahlil qilish uchun yordamchi vazifasini bajarish edi. Korpus 500 ta matndan tashkil topgan bo'lib, har biri taxminan 2000 ta so'zdan iborat. Matnlar esa turli janrlardan olingan, misol uchun, ilmiy, badiiy, ommaviy axborot vositalari. Hozirda bu korpus zamонавиј korpuslar uchun model sifatida xizmat qiladi va tilshunoslikda qimmatli manba sifatida saqlanib qolmoqda.

LOB korpusi – (Lancaster-Oslo/Bergen Corpus) Britaniya ingliz tilidagi ilk kompyuterlashtirilgan korpus 1970-yilda yaratila boshlagan. Bu Brown korpusining Britaniya versiyasi. LOB korpusi Brown korpusiga o'xhash tarzda tuzilgan bo'lib, Britaniya ingliz tilini tadqiq qilish va Amerika ingliz tili bilan solishtirish uchun yaratilgan.

FROWN (Freiburg-Brown) va FLOB (Freiburg-LOB) korpuslari o'tgan asrning 90-yillarda oxirida yaratilgan bo'lib, zamонавиј ingliz tilini tahlil qilish va ilgari yaratilgan korpuslar bilan solishtirish uchun mo'ljallangan. Germaniyaning Freiburg universitetida Christian Mair va uning jamoadoshlari tomonidan yaratilgan. FROWN Amerika ingliz tiliga asoslangan bo'lib, uning ildizi Brown korpusiga borib taqaladi, FLOB Britaniya ingliz tiliga asoslangan bo'lib, u esa LOB korpusiga bog'liqdir [14, 16].

Ingliz tilida ta'limi korpus alohida korpus bo'lib, Gonkong Study Corpus ingliz tilini o'rganuvchilarining yozma ishlariga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu korpus til o'rganuvchilarining yozish jarayonidagi xatolarini, uslublarini va til qoidalariга rioxha qilish darajasini o'rganish imkonini beradi. Bu esa ta'lim jarayonida samarali til o'rgatish usullarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, maqolada ta'limiylor korpus lingvistikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar chuqur tahlil qilinib, uning dolzarbligi va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Ta'limiylor korpusning tilni o'qitishdagi roli, uning texnologik yondashuvlari, o'quv jarayoniga ijobiy ta'siri ko'rsatib o'tilgan. Dunyodagi ilg'or korpuslar, jumladan, ingliz, rus va o'zbek tilidagi korpuslarning o'ziga xos jihatlari hamda til o'rganishda foydalanish usullari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ta'limiylor korpuslarni takomillashtirish, o'quv jarayonlarini sifatli tashkil etish va milliy til korpuslarini rivojlantirishda muhim ilmiy asos yaratadi. Shu sababli, ta'limiylor korpuslar o'quvchilarning lingvistik ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida qo'llanishi mumkinligi aniqlangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduraxmonova N. Korpus linvistikasi darslik. – Toshkent, 2024. – B.12.
2. Elov B, Abjalova M, Raupova L. O'zbek tilining ta'limiylor korpusi va uning imkoniyatlari // O'zbekiston til va madaniyat. 2021. № 4. – 69-71 b.
3. Xoliyorov O'. Ta'limiylor korpuslar uchun giponimik, graduonimik va partonimlik munosabatlar bildiruvchi birliklar bazasini shakllantirish // Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti axboroti, 2021. № 01. – 30-b.
4. Mengliyev B, Xamreva SH. Til korpusi va uning ahamiyati. – Buxoro, 2018. – 3-b.
5. Чернявская О. Дидактический потенциал корпусных технологий в преподавании иностранных языков. 2016. – 261 с.
6. Чернявская О. Дидактический потенциал корпусных технологий в преподавании иностранных языков // Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. Филологические науки. Том 2. № 2. 2016. – 226 с.
7. Марданшина Р. Hatsionalnyy korpus v praktike lingvisticheskikh issledovanii i преподавании yazyka // Hatsionalnyy korpus russkogo yazyka / N.P. Dobrushina, A.I. Levinzon // Voprosy obrazovaniya, 2006. № 4. – 1-5 c.
8. Синклер Д. Как использовать корпуса в преподавании иностранного языка // How to use corpora in language teaching. – Amsterdam, 2004. № 6. – 1-3 b.
9. Холиёров Ў. Ўзбек тили таълимий корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. б. фалс. док. дисс. – Термиз, 2021.
10. Sidiropulos N, Hatzigeorgiu N. Construction of a web-based corpus for educational uses // Institute for Language and Speech Processing, 2011.
11. Sabine Braun. ELISA - til o'rganish maqsadlari uchun pedagogik jihatdan boyitilgan korpus, 2020.
12. Abdurakhmonova, N. (2021). Formal-Functional Models of The Uzbek Electron Corpus. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 10(8), 59-66.
13. Abdurakhmonova, N. (2019). Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All).
14. Martin W. Practical Corpus Linguistics An Introduction to Corpus-Based Language Analysis. Oxford, 2016. – P. 16.
15. Abdurakhmonova, N., Tuliyev, U., Ismailov, A., & Abduvahobo, G. (2022). UZBEK ELECTRONIC CORPUS AS A TOOL FOR LINGUISTIC ANALYSIS. In Компьютерная обработка тюркских языков. TURKLANG 2022 (pp. 231-240).